



O'QUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQINI RASMLI TOPSHIRIQLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Hamroyeva Zahro Akmal qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Ona tili va adabiyot ta'lim fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishining 4-bosqich talabasi

E-mail: zaxrohamroyeva1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada 5-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda rasmlil matnlardan foydalanishning ahamiyati, usullari va samarali yo'llari haqida so'z yuritiladi. Rasmlil topshiriqlar o'quvchilarning so'z boyligini kengaytiradi, tasavvurini rivojlantiradi va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. Og'zaki nutq madaniyatini shakllantirish o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlash va o'z fikrini erkin ifoda eta olishga o'rgatishning muhim shartlaridan biridir. Rasmlil topshiriqlar o'quvchilarni kuzatish, tahlil qilish, fikrlarni umumlashtirish hamda so'z boyligini oshirishga undaydi. Maqolada rasmlil matnlardan foydalanishning samarali yo'llari, o'quvchilarni faollashtirishga xizmat qiluvchi topshiriq va mashq turlari tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, rasmlil topshiriqlar o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, estetik didini shakllantirish va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, og'zaki nutq, rasmlil topshiriqlar, baholash mezonil, erkin muhit.

Annotation. This article discusses the significance, methods, and effective ways of using pictorial texts in developing the oral speech of 5th-grade students. Pictorial tasks expand students' vocabulary, further develop their imagination, and form the ability to think independently. The formation of oral speech culture is one of the important conditions for developing students' thinking, teaching them independent reasoning, and enabling them to express their own opinions freely. Pictorial tasks encourage students to observe, analyze, generalize ideas, and increase their vocabulary. The article analyzes effective ways of using pictorial texts, as well as types of tasks and exercises that serve to activate students' activities. The research results show that pictorial tasks play an important role in developing students' oral speech, forming aesthetic taste, and developing creative thinking.

Keywords: innovation, oral speech, pictorial tasks, assessment criteria, free environment.

Аннотация. В данной статье ведётся речь о значении, методах и эффективных путях использования иллюстративных текстов в развитии устной речи учащихся 5-х классов. Иллюстративные задания расширяют словарный запас учащихся, ещё больше



развивают их воображение и формируют способность к самостоятельному мышлению. Формирование культуры устной речи является одним из важных условий развития мышления учащихся, обучения их самостоятельному мышлению и свободному выражению собственного мнения. Иллюстративные задания побуждают учащихся к наблюдению, анализу, обобщению мыслей, а также к увеличению словарного запаса. В статье проанализированы эффективные пути использования иллюстративных текстов, а также виды заданий и упражнений, служащих активизации деятельности учащихся. Результаты исследования показывают, что иллюстративные задания занимают важное место в развитии устной речи учащихся, формировании эстетического вкуса и развитии творческого мышления.

Ключевые слова: инновация, устная речь, иллюстративные задания, критерий оценивания, свободная среда.

Har bir davlatning ertangi kuni va kelajagi fuqarolarining intellektual salohiyati, madaniyati, bunyodkorligi va ta'limga bo'lgan e'tiboriga tayanadi. Zero, eski ta'lim-tarbiya asosida yangi jamiyat qurib bo'lmagani kabi mamlakatimiz kelajagi, shubhasiz, kadrlar tayyorlash masalasiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Ta'lim sifati, uning maqsadi va vazifalarini, muntazam, shakl, metod, texnologiya va vositalarini to'g'ri tanlash muhim. Har bir mashg'uloti ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga, o'quv adabiyotlaridan kerakli axborotlarni mustaqil topishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Mashg'ulot sifati o'qilayotgan, tahlil qilinayotgan mavzuga pedagogning mas'uliyat bilan yondashishi, uning mazmunini ta'lim oluvchilarga yetkazishga qaratilgan mahorati, mashg'ulotni bugungi kun talabi asosida tashkil etish va boshqarish uslubiy faoliyati bilan belgilanadi. Pedagog mavzuni yoritish uchun uning muhim bo'lgan nazariya bilan asoslangan, fikrlarni mantiqan bog'langanligini tushuntira olsa, ma'lum maqsadga erishgan bo'ladi. Buning uchun o'qitish texnologiyalar va usullaridan foydalanishi zarur". Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ta'lim jarayonida innavatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchining nafaqat bilimini, balki uning ijtimoiy faolligini, muloqot ko'nikmalarini va jamoada ishlash madaniyatini ham rivojlantiradi. Interfaol metodlar qo'llanilgan mashg'ulotlarda o'quvchilar fikrlashga, savol berishga, o'z nuqtayi nazarini asoslashga intiladilar. Bu esa ular ongida "men ham fikr bildira olaman, men ham yechim topa olaman" degan ishonchni shakllantiradi. Natijada ta'lim jarayoni bir tomonlama ma'ruza ko'rinishidan chiqib, o'quvchi markazli, faol ishtirokka asoslangan haqiqiy hamkorlik muhiti vujudga keladi. Bunday yondashuv o'quvchi shaxsining har tomonlama kamol topishiga xizmat qilgani uchun, yuqorida ta'kidlangan fikrlarning to'liq tasdig'i bo'la oladi.

"Og'zaki nutq insonning kommunikativ faoliyatida asosiy o'rinda turadi. Zamonaviy jamiyatda og'zaki muloqot ko'nikmalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda, sababi shundaki




ular shaxsning ijtimoiy, akademik va kasbiy muvaffaqiyatining asosiy shartlaridan biridir”[Mavlonova ., 2020: 134]. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, og‘zaki nutq yozma nutqdan ko‘ra muhimroq. Inson jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, yetuk mutaxassis sifatida shakllanishi uchun fikrini mazmunli, ixcham va ravon ifodalay oladigan shaxs bo‘lishi lozim. Nutq deganda, aloqa jarayonida tilning namoyon bo‘lishi, ro‘yobga chiqishi, voqelanishi tushuniladi. Nutq tilning uzviy, hal etuvchi bo‘lagi bo‘lib, tilning barcha tomonlarini namoyish etadi. Nutq kundalik hayotda kishilar orasidagi o‘zaro aloqa ehtiyojini qondiruvchi vositadir. “Nutqni qanday usulda bayon qilishimiz, o‘zgalarga qay holda yetkazishimizga ko‘ra, og‘zaki va yozma nutq ajratiladi. Harflar vositasida bayon qilingan nutq yozma nutq hisoblansa, tovushlar orqali amalga oshiradigan nutqimizni og‘zaki nutq deb ataymiz. Og‘zaki nutq so‘zlash va eshitishga qaratilgan bo‘lsa, yozma nutq yozish va o‘qishga qaratilgan bo‘ladi”[Jo‘rayev T., 1973: 97]. Nutqning og‘zaki va yozma shakllari bir maqsadga – fikrni ifodalash va boshqalarga yetkazishga xizmat qilsa-da, ularning psixologik va lingvistik xususiyatlari bir-biridan farq qiladi. Og‘zaki nutq tabiiy, tezkor va ko‘proq muloqot jarayonida yuzaga keladi, unda ohang, pauza, imo-ishora kabi qo‘shimcha vositalar ma‘noni kuchaytiradi. Yozma nutqda esa fikr aniq, izchil va grammatik jihatdan mukammal bayon etilishi talab qilinadi, chunki bu shaklda yordamchi noverbal belgilar bo‘lmaydi. Shu nuqtayi nazardan “...ona tili darslarida og‘zaki nutq uchun alohida mashg‘ulotlar ishlab chiqilishi zarur. Bunda birinchi navbatda bolaning o‘z fikrini lisoniy vositalar yordamida to‘g‘ri ifodalash, mavjud lug‘at boyligidan oqilona foydalanish, bir mavzudan chetga chiqmay gapirishi, nutqni to‘g‘ri strukturalashtirish, ya‘ni mavzuga kirish, asosiy fikrni aytish, xulosalash, aytadigan gapi eshituvchiga qanday ta‘sir qilishini oldindan baholay olish, tinglovchining diqqatini ushlab turish kabi ko‘nikmalar shakllantirilib, takomillashtirilib borishi zarur”[Azimova I., 2020: 97]. Og‘zaki nutqning yuzaga kelishida so‘zlashuv uslubi juda katta ahamiyatga ega, bu uslubda ohangning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ohang og‘zaki nutqning reallashuvida til birliklaridan keyingi muhim, hal qiluvchi vosita bo‘lib, uning nutq tempi, pauza, ton, melodiya, tovush tembri, so‘z va gap urg‘usi kabi ko‘rinishlari ma‘noni farqlashda, ottenkalarni ajratib ko‘rsatishda, hayajonni kuchaytirishda xizmat qiladi. “Bugungi kunda ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish muhim metodik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki og‘zaki nutq – bu bolaning shaxsiy fikri, dunyoqarashi va ichki dunyosining ifodasidir. O‘quvchi o‘z fikrini ravon, izchil va ishonch bilan bayon eta olsagina, u jamiyatda faol va muvaffaqiyatli shaxs bo‘lib shakllanadi”[Mavlonova R., 2018: 528]. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik tadqiqotlar ham o‘quvchilarning og‘zaki nutqi qanchalik rivojlangan bo‘lsa, ularning o‘zlashtirish darajasi, ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ kompetensiyasi shunchalik yuqori bo‘lishini tasdiqlaydi. Bu esa og‘zaki nutqni rivojlantirish ta‘lim jarayonining ajralmas, ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanini yana bir bor isbotlaydi.



O'quvchi og'zaki nutqini rivojlantirish uchun quyidagilarni tavsiya qilgan bo'lar edik: avvalambor, o'quvchini gapirtira oladigan muhit yaratish lozim, o'quvchini gapirtirish uchun hayotiy real mavzularni tanlay olish zarur, chunki o'quvchilarga qiziq bo'lgan mavzu unga gapirish imkonini bera olishini nazarda tutmoq lozim. Bu borada quyidagi usuldan foydalanish o'rinli.

“Gapiruvchi surat” usuli.



Maqsadi:

Bu usul 2 bosqichda tashkil etiladi. O'quvchilarda ijodiy tafakkur, tasavvur, vaziyatlardan chiqqa olishni, ya'ni imperivizatsiya qila olishni va og'zaki nutqini rivojlantirishni asosiy maqsad qilib oladi.

Mohiyati:

1-bosqichda o'qituvchilar bittadan kartochka tortadi, har bir kartochkada bittadan rasm berilgan bo'ladi. O'quvchi rasimga qarab, unga ta'rif beradi. Hamma surat “Men...” jumlasini bilan



boshlanadi. Ta'rif tuzayotganda har bir so'zning ma'nosiga alohida e'tibor qaratish kerak deb shart qo'yildi. Baholashda ham so'zlarning ma'nolariga va o'quvchi berayotgan ma'lumot rasmda ko'rsatilgan narsa yoki buyumga mos kelish kelmasligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Masalan:

- “Men kitobman!” Mening vazifam – o'quvchilarga bilim berish.

Meni o'qisangiz, siz yangi bilimlar olamini kashf etasiz.

Meni o'qigan odam hech qachon zerikmaydi.

Men sizlarning eng yaqin do'stingizman.

- “Men olmaman!” Mening bir qancha foydali vitaminlarim bor. Masalan: A, C, T, B, K kabi.

Men daraxtda o'saman.

Mening navlarim juda ko'p: “Besh yulduz”, “Rozmarin”

Mendan shirinliklar, sharbatlar tayyorlash mumkin.

- “Men ilonman!” Men sudralib yuruvchilar sinfiga kiraman.

Mening oyoqlarim yo'q.

Men zaharliman. Hatto mening zaharim odamlarni o'ldira oladi.

Mening turlarim juda ko'p. Masalan: “Kobra”, “Shaqildoq”, “Bo'g'ma”, “Anakonda”, “Suv iloni”, “Chipor”.

- “Men paypoqman!” Mening vazifam – oyoqlarni issiq saqlash.

Meni paxta, jun, bambuk, sintetik tolalardan tayyorlashadi.

Mening kalta, uzun, tizzagacha turlarim bor.

Men salomatlik uchun juda muhimman kabi 4-5 ta qisqa tarif aytib o'tishadi.

2-bosqichda o'zlariga tushgan kartochkada tasvirlangan narsa/buyum nomi qatnashgan maqol yoki ibora topishlari lozim.

Masalan:

<i>“Olma” so'zi qatnashgan maqollar</i>	<i>“Kitob” so'zi qatnashgan maqollar</i>	<i>“Ilon” so'zi qatnashgan maqollar</i>
Olma tagiga olma tushar, O'rik tagiga o'rik.	Kitob – bilim bulog'i, O'quvchining o'rtog'i.	Ilon zahri – tishida, Yomon zahri – tilida.
???	Kitob ko'rmagan kalla – giyoh unmagan dala.	???

Olinadigan natija:

Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

O'quvchi mantiqiy va izchil fikrlashni o'rganadi.



Har qanday vaziyatda tez va hozirjavob bo'lish qobiliyatini oshiradi.

Bu usulni Toshkent shahar Yangihayot tumanida joylashgan 32-maktabning 5-“A” sinfidan 33 nafar, 5-“B” sinfidan 32 nafar o'quvchi ishtirok etishdi. O'quvchilarning og'zaki nutqi quyidagi mezon orqali baholandi.

T/R	Talaffuz va intonatsiya	20 ball
1	So'zlar aniq, ohang tabiiy, pauza va urg'ular to'g'ri.	18–20 ball
2	Ba'zi so'zlar noaniq talaffuz qilinadi, ohang ozgina g'alati.	14–17
3	Ko'p so'z noto'g'ri talaffuz qilinadi, intonatsiya notabiiy.	10–13
4	Talaffuz tushunarsiz, nutqni tinglash qiyin.	0–9

T/R	Leksika va grammatik to'g'rilik	20 ball
1	Lug'at boy, grammatik xatolar yo'q.	18–20 ball
2	Ba'zi kichik xatolar bor, lekin nutqni tushunishga to'sqinlik qilmaydi.	14–17 ball
3	Ko'p grammatik yoki leksik xatolar.	10–13 ball
4	Nutq deyarli tushunarsiz, grammatik jihatdan noto'g'ri.	0–9 ball

T/R	Mazmun va mantiq	20 ball
1	Fikr aniq, mantiqiy va to'liq ifodalangan. Misollar bilan mustahkamlangan.	18–20 ball
2	Fikr tushunarli, lekin mantiqiy bog'lanish ba'zan yo'q.	14–17 ball
3	Fikrlar to'liqsiz, mavzudan chetlashish mavjud.	10–13 ball
4	Nutq mavzuga mos kelmaydi yoki tushunarsiz.	0–9 ball

T/R	Nutq madaniyati va uslubi	20 ball
1	Tinglovchilar bilan aloqasi yaxshi, nutq tartibli va madaniyatli.	18–20 ball
2	Ba'zi joylarda tartibsizlik yoki noqulay uslub mavjud.	14–17 ball
3	Nutq ba'zan madaniyatsiz, so'z tanlovi nomaqbul.	10–13 ball
4	Nutqda madaniyat yo'q, tinglovchi e'tibori yo'q.	0–9 ball
T/R	Kommunikativ qobiliyat	20 ball
1	Tinglovchilar bilan aloqa, savollarga javob berish va e'tibor uyg'otish mukammal.	18–20 ball



2	Aloqa va javob berish ba'zan qiyin, lekin umumiy tushunishga halaqit qilmaydi.	14–17 ball
3	Aloqa zaif, savollarga javob berishda qiynaladi.	10–13 ball
4	Tinglovchilar bilan aloqa yo'q, nutq samarasiz.	0–9 ball

Natija:

Ballarni jamlab 100 balldan chiqariladi va quyidagicha baholanadi:

90–100 – A (a'lo)

75–89 – B (yaxshi)

60–74 – C (o'rtacha)

50–59 – D (qoniqarsiz)

0–49 – F (yomon)

Olingan natijalar:

5-“A”	A-12	B-9	C-8	D-4
5-“B”	A-13	B-9	C-7	D-3

Sifat ko'rsatgich bo'yicha

Boshlang'ich natija 5-“A” sinfida 64%

5-“B” sinfida esa 67% ni ko'rsatdi.

Zamonaviy o'qituvchilarga xos bo'lgan muhim sifatlardan biri faoliyatga kreativ yondashish va o'quvchilarni ham shu ruhda tarbiyalashdan iborat. Qachonki o'qituvchi o'quvchilarning qalbini ocha olsa, ular bilan yaqindan gaplashsa, “erkin muhit” yarata olsa, og'zaki nutq ko'nikmasi rivojlanishiga zamin yaratgan bo'ladi. Og'zaki nutqni rivojlantirish uchun shunday muhit yaratish kerakki, o'quvchi o'zini shaxs sifatida hisoblashi, o'ziga bo'lgan e'tiborni tuya olishi lozim. Dars mashg'uloti jarayonlarida “erkinlik muhiti” tashkil etilsa, o'quvchida o'z kuchi va iqtidoriga ishonchi orttirib borilsa, takomillashgan o'quv jarayoni ham o'z-o'zidan yuzaga keladi. Demakki, o'qituvchi ham doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, pedagojik mahoratini uzluksiz oshirib borishi va zamonaviy metodlardan foydalana olishni bilishi kerak. Yaxshi o'qituvchida bilim, ko'nikma va malakadan tashqari kreativlik ham yuqori bo'lishi lozim. Shundagina u mahoratli pedagog bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova I. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – Toshkent, “Hilol”, 2020. – B 97.
2. Jo'rayev T. Nutq madaniyatiga oid masalalar. – Toshkent, “Fan”, 1973. – B 119.



3. Mavlonova K., Qo'ldosheva S., Hakimova N., Siddiqov M. 5-sinf ona tili darsligi. – Toshkent, “Novda Edutainment”, 2024. – B 144.
4. Mahmudov N. Nutq madaniyati va davr. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2020. – B 143.
5. Mavlonova.R, Rahmonqulov.N Umumiy pedagogoka.Toshkent: ”Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2018. – B 528.